

HUQUQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Abdullayeva Zilola

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada huquqiy madaniyat tushunchasi va uning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Asosan, ta'lim va tarbiyaning huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishdagi roli yoritiladi. Ta'lim tizimida huquqiy bilimlarning samarali o'qitilishi va tarbiyaning ahamiyati muhokama qilinadi. Shuningdek, ushbu jarayonda davlat va jamoat tashkilotlarining o'rne ham ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *huquqiy madaniyat, ta'lim, tarbiya, huquqiy ong, fuqarolik jamiyati, huquqiy bilimlar, davlat siyosati.*

Аннотация: *В данной статье анализируется понятие правовой культуры и ее значение в развитии общества. В основном освещается роль образования и воспитания в формировании правового сознания и правовой культуры. В системе образования обсуждается важность эффективного преподавания правовых знаний и воспитания. Также будет рассмотрена роль государственных и общественных организаций в этом процессе.*

Ключевые слова: *правовая культура, образование, воспитание, правосознание, гражданское общество, правовые знания, государственная политика.*

Abstract: *This article analyzes the concept of legal culture and its importance in the development of society. Basically, the role of education and upbringing in the formation of legal consciousness and legal culture is highlighted. The effective teaching of legal knowledge in the education system and the importance of upbringing are discussed. The role of state and public organizations in this process is also considered.*

Keywords: *legal culture, education, upbringing, legal consciousness, civil society, legal knowledge, state policy.*

Jamiyat huquqi bilimga ega, ijtimoiy jihatdan yetuk, erkin shaxsga muhtoj. Chunki jamiyat ichida ko'p ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar, bolalarning huquqiy savodxonligini rivojlantirish uchun bo'lgan e'tiborni kuchaytirmoqda.

Jamiyat rivojining muhim talablaridan biri bu ijtimoiy taraqqiyotga qodir, shaxsning huquq va erkinliklarini hurmat qiladigan, demokratik davlat va jamiyat taraqqiyotiga ko'maklashadigan yosh avlodni tarbiyalashdir.

O'quvchilarni huquq ongni rivojlantirishning eng asosiy yo'nalishlaridan biri, huquq normalarini qanday qilib o'rganish, ularni tushunish va amalda qo'llay olishi bilim, ko'nikma va malakalarini yanada rivojlantirishda o'quv mashg'ulotlarini olib

borishda interfaol usullar va yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishni talab qilmoqda.

Pedagogik o'yinlar faoliyat turlari, pedagogik jarayon xarakteri, o'yin metodikasi, soha xususiyati, o'yin muhiti bo'yicha tasnif qilinadi. Oliy ta'lim amaliyotida tadbirkorlik o'yinlariga alohida ahamiyat beriladi. Tadbirkorlik o'yinlari nazariyasi umuman boshqa o'yin faoliyati nazariyasi bilan bevosita bog'langan.

Tadbirkorlik o'yinlarini mashhur psixologlar L.S.Vыgodskiy, A.N.Leontev, P.Ya.Galperin va boshqalarning ishlarida nazariy asoslangan. Tadbirkorlik o'yinlari o'z harakteriga ko'ra insonning shaxsiy xislatlarini shakllantirishning amaldagi vositasi hisoblanadi.

A.A.Verbitskiy fikricha, tadbirkorlik o'yinlarida mashq qilish faoliyati va bo'lajak kasbiy faoliyat model yoki uning prototipi, qaysidir sun'iy va tabiiy tizim sifatida o'zaro nisbatlanadi.

Shu tufayli tadbirkorlik o'yinlari kasbiy faoliyatning ishoraviy modellari sifatida belgilanadi, uning konteksti (mazmuni) ishora vositalari, ya'ni tabiiy tilni ham hisobga olgan modellashtirish, taqlid va aloqa yordamida beriladi.

Tadbirkorlik o'yini yangi texnologiya sifatida mohiyatan quyidagilarni bildiradi:

1. Ishlab chiqarish imitasion modeli sifatida taqdim etilgan o'quv materialini mazmunining izchilligi;
2. O'yinli o'quv modelida kelgusidagi kasbiy faoliyati tarkibiy qismlarini yaratish;
3. O'quv jarayoni tarzini bilimlarga ehtiyojlarni tug'dirish va ularni amalda qo'llashning real sharoitlariga yaqinlashtirish;
4. O'yinning ta'limiy va tarkibiy samaradorligi yig'indisi;
5. O'yinni olib boruvchi o'qituvchining o'quvchilar faoliyatini tashkil etish va boshqarishga o'tishni ta'minlashi.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishda rol hamda ishbop o'yinlardan samarali foydalanishga alohida e'tibor berilmoqda. O'quvchilarda muayyan faoliyat yuzasidan egallangan nazariy bilimlarni amaliy ko'nikma va malakalarga aylantirish, ularda ta'limiy faollikni yuzaga keltirish, ularni ijtimoiy munosabatlar jarayoniga keng jalb etishda rol hamda ishbop o'yinlar o'ziga xos o'rin tutadi.

O'yinlarni tashkil etishda quyidagi maqsadlar ko'zda tutiladi:

- ta'limiy (didaktik) maqsad;
- tarbiyaviy maqsad;
- faoliyatni rivojlantirishga yo'naltiruvchi maqsad;
- ijtimoiy maqsad.

O'qituvchi va o'quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo'lib, bunda o'quvchilarning bilim saviyasi, guruh harakteri, sharoitga qarab, ishlatiladigan texnologiya tanlanadi.

Rolli o'yin metodi mashg'ulot mavzusi bo'yicha ma'lum masala, muammo, vaziyat yoki topshiriqni muhokama qilish va tegishli qarorlar qabul qilish bilan bog'liq

hollarda qo'llaniladi. Bunda har bir ishtirokchiga ma'lum rol taqsim qilinishini nazarda tutish lozim. Bu metoddan foydalanilgan mashg'ulotlarda ishtirokchilarning o'zlariga topshirilgan rolni ma'lum sharoit va ma'lum vaziyatlarda bajarishlari orqali ularning amaliy ish jarayoni bo'yicha tayyorgarlik darajalari ortib boradi.

Bunda ishtirokchilarning turli rollarda bo'lib ko'rishlari mashg'ulotning qiziqarli bo'lishi bilan birga, undan undan ko'zda tutilgan maqsadlarga erishishga ham yordam beradi. Umuman olganda "Rolli o'yin"larning turli xil shakllari. Masalan: "Akvarium", "Ko'zgu", "Rollar dublyaji", "Paralel", "Rollarni almashish", "Rollarning rotatsiyasi", "Suhbatdosh stuli" kabi shakllari mavjud. Quyida "Rolli o'yin" metodining "Akvarium" shaklida olib borib, mashg'ulot davomida qo'llash uchun misol keltiramiz.

"Tarbiya" fani orqali o'quvchilarni huquqiy savodxonligini rivojlantirishda Vijdon, rostgo'ylik haqidagi materiallar asosida guruhlar bilan ishlashni yo'lga qo'yish mumkin: Unda quyidagilarni rivojlantirish mumkin:

- rostgo'y bo'lish nimani anglatishini;
- boshqalarga nisbatan halol va rostgo'y bo'lishni;
- rostgo'ylik nima uchun kerakligini bilib olasiz.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak o'quvchilarning "Tarbiya" fanini o'qitish orqali huquqiy savodxonligini rivojlantirishda ta'lim jarayoni sifati va samaradorligiga bog'liq bo'lib, bular orasida tegishli ilmiy-metodik yangiliklar, ilg'or pedagogik texnologiyalar, interfaol ta'lim metodlari, ilg'or pedagogik tajribalar to'g'risidagi axborot ta'minoti hamda shu axborotning yangiligi, so'nggi ilmiy xulosalarga asoslanganligi katta ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
2. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.– Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
3. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Tarbiya. – T.: Sharq, 2021. – 304 b.
4. Zankov L.V. Didaktika i jizn. - M.: Prosveshcheniye, 1968. – 101 s.
5. Zveginsev V.A. Teoreticheskaya i prikladnaya lingvistika. – M.: Prosveshcheniye, 1968. – 102s. g. // Smyslovoye vospriyatiye rechevogo soobshcheniya. – M.: Nauka 1976. – 57–64.
6. Zimnyaya I.A, Psixologicheskiye aspekty obucheniya govoreniyu na inostrannom yazyke. – M.: Prosveshcheniye, 1985. – 160 s.
7. Zimnyaya I.A. Psixologiya obucheniya inostrannomu yazyku v shkole. – M.: Prosveshcheniye 1991. – 227 s.
8. Xidoyatova D.A. "Interfaol metodlardan foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantirish" mavzusidagi seminar-trening o'tkazish bo'yicha uslubiy tavsiyalar

(Ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarning o'zbek tili o'qituvchilari uchun).
Uslubiy qo'llanma. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. - 32b.